

Qaraqalpaq xalqınıń qol óneri xalıqtıń kórkem óneriniń eń eski túri hám qaraqalpaq xalqınıń tariyxın, mádeniyatın úyreniwdegi tiykargı derekterdiń biri. Qol óner leksikası-qaraqalpaq tiliniń sózlik quramınıń ayırıqsha bir bólege.

Úyrenilgen maǵlıwmatlar qol óneri leksikasında ulıwma túrkiy tillerge ortaǵ bolǵan sózler menen birge arab, parsı, tájik tillerinen hám rus tilinen kirgen sózlerdiń de bar ekenligin kórsetedi.

Ádebiyatlar

1. Ёўлдашев. Ёқитувчи китоби. Методик қўлланма. –Тошкент: «Ёқитувчи», 1997, 169-6.
2. Ушинский К.Д. Собрание сочинений. –Москва: «Ленинград», 1949.
3. Ушинский К.Д. Собрание сочинений. –Москва: «Ленинград», 1950, Т. 8, 25-6.
4. Berdimuratov E., Pirniyazov Q. Orta mekteplerde qaraqalpaq tilin oqıtıw metodikası. -Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 1988. 50-56-b.
5. Abdinazimov Sh.N., Pirniyazova A.Q., Shinnazarova S.J. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili fonetika, leksikologiya. –Tashkent: “Sano-standart”, 2018. 64-74-75-b.
6. Allaniyazova Sh. Qaraqalpaq tiliniń qol óneri leksikası. -Nókis: “Bilim”, 1997.
7. Allaniyazova Sh., Táńiberǵenov J. Qaraqalpaq tilin oqıtıwda innovaciyalıq texnologiyalar. -Nókis: “Bilim”, 2015.
8. Pirniyazova A.Q., Shinnazarova S.J. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili pánin oqıtıwda interaktiv usıllardan paydalanıw. –Tashkent: “Bayoz”, 2014.

РЕЗЮМЕ. Мақоллада дarsда qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollarning turlari haqida fikr yuritiladi. Umumta‘lim maktablarida lug‘atlarning turlari, qo‘llanilishi haqida ham tushunchalar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье обсуждаются виды наглядных пособий, используемых в классе, а также обсуждаются виды словарей, используемых в общеобразовательных школах.

SUMMARY. The article discusses the types of visual passbooks used in the classroom, and also discusses the types of dictionaries used in public schools.

QORAQALPOG‘ISTONLI TURKMANLAR TILIGA YEVROPA TILLARIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR

M.A.Babaeva – *stajyor o‘qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Ch.D.Chariev – *assistent o‘qituvchi*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar, chet tillari, termin, o‘zlashgan terminlar, o‘zlashgan so‘zlar semantikasi.

Ключевые слова: заимствованные слова из европейских языков, иностранные языки, термин, заимствованные термины, семантика заимствованных слов.

Key words: borrowed words from European languages, foreign languages, term, borrowed terms, semantics of borrowed words.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan, “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarorining imzolanishi kelajakda bilimli va intellektual rivojlangan yosh avlodni kamol toptirishda muhim omil bo‘lishi shubhasizdir [1:2]. Ushbu qarorga muvofiq 2013-2014-o‘quv yilidan boshlab barcha umumta‘lim maktablarida chet tillarni, jumladan ingliz tilini o‘rganish 1-sinfdan og‘zaki nutq darslaridan boshlab, bosqichma-bosqich chuqur o‘rgatishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Chet tillarini maktablarda chuqur o‘rganish va mustaqil o‘qish orqali tilimizda bir nechta o‘zlashmalar ham paydo bo‘la boshladi. Bu asosan, yosh avlod orasida sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi. Sababi ular ingliz tili darsida o‘rgangan so‘zlarini: salom o‘rniga gudmoning-goodmorning, olma o‘rniga t-*apl-apple*, xayr o‘rniga t-*gu:d bay-good bye* yoki t-*bay bay-bye-bye* so‘zlarini faol ishlata boshlashdi.

Mustaqillikka erishgach, mamlakatimiz iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan, fan, ta‘lim, madaniyat sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ma‘lumki, ilm-fan jamiyat va davlat taraqqiyotida, odamlarning moddiy va madaniy hayotini yuksaltirishda, xalq ma‘naviyatini tubdan o‘zgartirishda juda muhim o‘rin tutadi.

Turkiy tillar qatorida turkman tili terminologiyasi ham mamlakatimiz mustaqilligi yillarida o‘zining yangi rivojini boshladi. Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, turkman tili leksikasi ana shu qisqa davrda milliy tilimiz lug‘at tarkibidagi sifat va miqdor o‘zgarishlarini o‘zida aks ettiradi. Asosan xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari rivojini olg‘a surayotgan fan-texnika taraqqiyoti natijasida tilimizning yangi so‘zlar bilan boyib borishiga, jumladan, ilmiy-texnikaviy terminologiyaning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu esa chet el so‘zlarini xalqaro atamalarini milliyalashtirish ehtimoli masalasini ko‘taradi. Bu masalada, eng avvalo, tilimizning ichki vositalari, ya‘ni qadimiy yozma yodgorliklarimiz turkman shevalari va so‘zlashuvlarida qo‘llanilgan so‘zlar hamda turkiy tillardagi turdosh atamalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Keyingi yigirma yilda fan, madaniyat, iqtisodiyotning zamonaviy taraqqiyotini aks ettiruvchi ko‘plab lug‘atlar,

darsliklar, monografiyalar, nashr etildi. Shulardan turkman tiliga tegishli “Turkmen diliniń terminologik leksikasy”, “Turkmen diliniń harby terminleriniń so‘zlúgi”, “Turkmen diliniń terminologiyasynyń meseleleri”, “Turkmen diliniń professional leksikasy”, “Turkmen diliniń zergarçilik leksikasy” Atanyyazow B. “Turkmen diliniń awçylyk leksikasy”, Baýjanow B. “Turkmen dili. Leksika (Amaly kurs)” va boshqa ilmiy asarlar, ixtisoslashtirilgan lug‘atlar, darsliklar nashr etilishi turkman tili terminologiyasining me‘yorlashtirilgan, ularning ilmiy jihatdan takomillashib, rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Turkman tili leksikasi faqat turkmancha so‘zlardan iborat emas. Tilimizda boshqa tillardagi so‘zlar ham ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, jurnal, sinf, qalam, direktor, raketa, avtobus, gazeta, galstuk, parta, brigadir kabi so‘zlar turkman tiliga rus tilidan yoki rus tili orqali chet tillaridan o‘tgan so‘zlardir.

Turli tillardan o‘zlashgan terminlar:

Grek tilidan: korabl, planeta, komediya, tragediya, kafedra, poema, diagnoz, atom, okean, krowat va b.

Lotin tilidan: student, dekan, deputat, delegat, notarius, armatura, resept, rektor, senzura, gradus, globus, awtor, administrator, auditoriya va b.

Nemis tilidan: şlyapa, şifer, rota, şahta, ştraf, orden, baletmeyster, fartuk, kitel, tanes va b.

Fransuz tilidan: kostyum, kompot, balet, paraşyut, abažur, banderol, desant, palto, kabinet, tualet, general, leytenant, žanr, antrakt, aktyor, pyesa, awans va b.

Ingliz tilidan: tramway, futbol, traktor, miting, klub, basketbol, woleybol, boks, žemper, dispetçer va b.

Internatsionalizmlar tarjima qilinmasligi kerak. Ular dunyo tillarining ko‘pchiligida bir xilda qo‘llanilganligi sababli kelajakdagi tilning asosiy elementlarini tashkil qiladi.

N.Mahmudovning ta‘kidlashicha, boshqa tildan so‘z olganda, albatta, muayyan me‘yor saqlanishi shart, shubhasizki bu me‘yor tilning yaxlit so‘z zahirasini mehvaridan chiqarib yubormaslik uchun xizmat qiladi. Shuni ham alohida ta‘kidlamog‘ joizki, boshqa tildan me‘yorni saqlagan holda olinadigan so‘z oluvchi tilning fonetik qonuniyatlariga moslashtirilishi maqsadga muvofiq [2:4].

Yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar semantikasi

Aýazbaba [Aýazba:ba] [3:46] – Yevropa davlatlarida, jumladan, Rossiyada va barcha sobiq Ittifoq davlatlarida yangi yil bayrami arafasida Qorbobo, oq sun'iy soqolli, oq ko'krak qamish, hassa va sovg'alar solingan sumkali chol, uning yelkasi, festivalning bosh qahramoni va "Rojdestvo" sovg'alarini tarqatadi. Amerikada uni "Santa Klaus" deb atashadi. Yonida bolani ko'tarishga yordam beradigan quvnoq va go'zal qiz turkmancha – "Garpamik", ruscha – «Snegurochka» deb ataladi.

Fransuz tilida turkman tilidagi "*kesmek, kerçemek*", ma'nosidagi chap fe'lidan tuzilgan bu so'z arabcha sabbat > fransuzchada sabot so'zidan olingan bo'lib, fransuz tilidagi infinitiv *sabotage' sabotaz', saboter* (talaffuz qilish: sabote) va saboteur (talaffuz qilinishi sabotör [4:100] kabi so'zlar paydo bo'lgan. Hozirgi kunda bu so'zlar keng qo'llaniladi va butun dunyoda ma'lum.

Eskalator. Bu so'z ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, (escalator) so'zidan olingan va frantsuzcha escalade – "zinadan yuqoriga ko'tarilish" fe'lini ifodalaydi; [5:423].

Ekvator. Yerni Shimoliy va Janubiy yarimsharlarga ajratuvchi ushbu an'anaviy chiziqning nomi lotincha aequator (aequus – "teng"), ya'ni "teng qilish" ga borib taqaladi va ehtimol bu an'anaviy chiziqning ikkiga bo'linishi bilan izohlanadi [5:424].

Sharf. Nemis tilidan o'zlashgan bo'lib, ushbu so'z frantsuz tili orqali (echarpe) lotin tiliga o'tgan. scirpea – "o'ralgan" [5:413] degan ma'noni anglatadi.

XX asrning 20-yillarigacha turkman tilida ilmiy terminologiya [6:70] mavjud emas edi. Shuning uchun sovet hokimiyati yillarida terminologiya muammosini ilmiy asosda o'rganishga kirishildi. Terminologik leksika SSSR xalqlari adabiy tillari leksikasining eng keng tarqalgan va tez o'sib borgan qismi bo'ldi: 1926-yilda Bokuda bo'lib o'tgan I Butunittifoq turkologik qurultoyida terminologiya masalasi ko'rib chiqildi.

Assambleya qarorida terminologiyani belgilash; eng avvalo, har bir milliy tilning ichki resurslariga – turkiy so'zlarga; keyin uni arabcha so'zlar va keng omma o'zlashtirgan yevropa so'zlarga tayanib, ommabop lug'at sifatida qo'llash zarur.

1930-yilda Turkmanistonda 1-ilmiy konferensiya chaqirildi. 1-ilmiy anjumanda turkman adabiy tili va atamaning to'g'ri yozilishi haqida qaror qabul qilindi. 1-ilmiy konferensiya qarorida terminlar (t-adalga, atama) uchun turkmancha so'zlardan, sovet-xalqaro atamalardan foydalanish zarurligi qayd etilgan. 1936-yilda Turkmanistonning birinchi tilshunoslik qurultoyida atamashunoslikka oid tegishli qaror qabul qilindi. 1954-yilda turkman tilining orfografiyasi, terminologiyasi va tinish belgilarini tartibga solishga qaratilgan II Turkmaniston tilshunoslik qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy turkman adabiy tili terminologiyasini tartibga solish to'g'risida (M.D.Annagurdowyn doklady bo'yicha) qaror qabul qildi [7:61]. Termin so'ziga quyidagicha izoh berib o'tdik. Turkman tiliga boshqa tillardan so'z o'zlashishi turli davrlarni o'z ichiga oladi. Eng qadimiy davrda fors va tojik tillaridan, keyinroq arab tilidan, undan ham keyinroq rus tilidan va rus tili orqali Yevropa tillaridan ko'plab so'zlar o'zlashgan. Bu o'zlashishlar asosan terminlarda o'z aksini topgan. Hozirgi kunda "termin" so'zi bilan bir qatorda "t-adalga" yani "atama" so'zlari ham ayni ma'noda qo'llanmoqda. Lekin ular termin so'zining hozirgi ma'nosini to'liq ifoda eta olmaydi. "Adalga" ya'ni atama so'zi keng ma'noda bo'lib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan ishlatiladi. Turkman terminologiyasini yaratish va boyitishda rus tilining roli katta, chunki rus tili orqali turkman tiliga ko'plab xorijiy so'zlar o'tgan. Hozirgi vaqtda o'zlashmalardan iborat terminologik korpus o'ndan ortiq nomlarni o'z ichiga oladi; kvaio'zlashmalar (lot.: "quassi" – o'hshash", "singari") [8:34]; ksenizmlar, diaksenizmlar, paleoksenizmlar, ekstranizmlar; chet tillariga, oid so'zlar, varvarizmlar, ekzotizmlar (ekzotik so'zlar); alienizmlar [9:236]; lokaliz-

mlar; makaronizmlar; internatsionalizmlar (internatsional so'zlar); regionalizmlar, o'zga tizimga oid lisoniy birliklar; o'zga tilga oid unsurlar, ekstremal o'zlashmalar va boshqalar.

A.S.Gerdning mulohazasiga ko'ra ilm-fan taraqqiyo-ning muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'laligicha aks ettiruvchi ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, yani so'z birikmasidir [10:4].

Termin – grekcha "*terminus*" so'zidan olingan bo'lib, "*chek, chegara*" degan ma'noni bildiradi. Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi: atama. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi [11:153]. Bu yerda termin so'zining o'zi ham grek tilidan tilimizga kirganini aytib o'tish joiz. Til bilimiga oid terminlarning ko'pchiligini grek tilidan o'zlashganligini biz oldindan bilamiz. Turkman tilidagi qo'llanayotgan chet tillaridan o'zlashgan bir nechta terminlarni quyida sohalarga bo'lib ko'rsatdik.

Leksikologiyaga oid terminlar: toponimika (gr. "topos" – yer, "onyma" – at), etnonimika (gr. "ethnos" – halk, "onyma" – at), onomastika (gr. "onomastikos" – ada degishi), antroponimika (gr. "anthropos" – adam, "onyma" – at), zonimika (gr. "zoon" – haywan), gidronimika (gr. "hydor" – suw), etimologiya (gr. "etimologia < etimon" – hakykat, esasy many + "logos" – ylym), Semasiologiya (gr. "semasia" – many, "logos" – ylym), polisemiya (gr.poly – kop + sema – belgi), metafora (gr.metaphora – geçirme, göçürme), metonimiya (gr.metonymia – gaytadan atlandyрма), sinekdoha (gr.synekdoche – oylama, guman etme), omonim (gr. homos), omograf (gr. homos – birmeñzeş – grapho yazýaryn), omofonlar (gr. homos – birmeñzeş, phone – ses), omoforma (gr. homos – birmeñzeş – lat. forma – forma), omomorfema (gr. homos – meñzeş morphe – forma), dialektizm, trop gr. tropos – aylaw), grammatologiya, akustika,

Tibbiyotga va kasallik bilan bog'liq terminlar:

Gastrit (yun. *Gaster*- me'da oshqozon) kasalligi. *Gematoma* (yun. O'sma-to'qima orasiga va tana bo'liqlariga qon quyilishi). *Gemorroy* (yun. Haima – qon va rheo – oqaman). *Gen* (yun. Genos – urug', kelib chiqish), *generativ organlar* (lot. *Genero* – yarataman hosil qilaman), genetika, genetik, geniy (lot.genius), *ginekologiya* (gynai-kos – ayol), *abort* (lot. abortus – bola tashlash) [12:11], *gigiena* (yun-hygienes-shifobahsh), *gipovitaminov*, gips, gipoteza, gistologiya, glaucoma, glyukoza, gormon.

Harbiy sohaga oid: gvardiya, general.

O'simlik va mevalar: gilos (cerasus avium L.) *gibrid* (lot-qon qo'shilishi, duragay, chotishma), [13:498].

Adabiyot va san'atga tegishli terminlar: Gimn, gimnaziya, gimnastika, lirika, rifma, epos, poema, satira, komediya, drama, tragediya, orkestr, balet, giperbola, gazeta, gitara, personaz, kulminasiya.

Lingvistik terminlar: Gidronomika, grammatika, fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksika, affiks, assimilyasiya.

Sportga sohasiga oid: golf, football, tennis, volleyball, sport, basketball [14:85], boks-boxe, boxeur, aut, autsayder, badminton, ping-pon, kart, karting, kort, match, motobol, lider, motokross, nokaut, nokdaun, raund, regbi, rekord, rekordsmen, ring, set, sport, sprint, start, taym-aut, trener, trenirovka, final, finish, xokkey, chempionat, yaxta sport qayig'i, yaxtsmen, gandbol, gol, geym, sportsmen, boks, trenajyor, taym, reyting kabilar.

Taom nomlari anglatadigan terminlar: gulyash(venghulas).

Falsafiy terminlar: dialektika, analiz, ideya, metafizika, kategoriya, obyekt, subyekt, absulyat.

Geografik terminlar: klimat, okean, polyus, globus.

Kimyoviy terminlar: azot, yod, kaliy, hlor.

Fizik terminlar: Elektrik, optika, barometr, termometr, mikroskop, antenna, atom, teorema, elektron, neutron, proton, atom.

Aslida rus tilidan kirgan deb o'ylagan so'zlarimiz ham o'z navbatida fransuz tilidan o'tgandır: revolution, revolutionnaire, economie, economique, morphologie, morphologique [14:54].

Ijtimoiy-siyosiy terminlar: demokrat, respublika, konstitutsiya, sosializm, kommunizm, partiya, komissar, delegat, deputat, konferensiya va b. Jahonda hech bir til yo'qki, uning lug'ati faqat o'z so'zlaridan tashkil topgan bo'ladi. Boshqa tillardan olingan so'zlar o'sha tilda yo'z shaklini qanday bo'lsa, shundayligicha saqlaydi, yoki uning tabiati, grammatik qurilishi, so'z yasaliş, imlo va talaffuz qoidalariga uyg'unlashadi [15:120].

Quyida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va sportga oid mavzuli guruhning so'zlarini ichki bo'linishlar asosida ko'rib chiqamiz:

Kiyim nomlari: jemper, jinsi, pijak, sviter, trusi, reglan va boshqalar.

Ichimlik nomlari: kokteyl, koka-kola, pepsi-kola, viski kabilar.

Pul birligi nomlari: dollar, sent, funt sterling kabilar.

Uy ro'zg'or buyumlarining nomlari: mikser, player va boshqalar.

Kosmetika va maishiy mavzular: sheyping, shampun, fen, servis va boshqalar.

Joy tushunchasini bildiruvchi otlar: vokzal, kemping, klub, kollej, kottej, motel, tunnel, zoopark, xoll park, supermarket kabilar.

Iqtisodiyot va savdoga oid o'zlashtirilgan so'zlar: lizing, eksport, banknot, broker, warrant, vaucher, grant, diler, import, importyor, investor, barter, budjet, marketing, xolding, konsalting, biznesmen, biznes va boshqalar.

Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning eng muhimi internasiolizmlardir. Barcha mamlakatlarda ilm-fan, texnologiya va madaniyat rivojlanishi bilan bir nechta tillar uchun umumiy so'zlar paydo bo'ladi.

Kompaniyalar nomlari: Humans, Huawei, Samsung, nokia, redmi, ucell, beeline, tiktok, facebook, adidas, nike, instagram, uzmoblie, artel, LG (lifes good), Mercedes Benz, Hyundai, Chevrolet, Coca-Cola, Acer, Pepsi, Fanta, Puma, Hoffman, Gap, Gucci, Porsche, Shivaki, Chanel, Snickers, Mars, BBC, Reebok, Dolce & Gabbana, Google, Daewoo, Toyota, Whatsapp.

Ijtimoiy tarmoqlar: You Tube, Twitter, Facebook, Telegram, whatsapp, Instagram, Google.

Yangi tarixiy davr turkman tilshunoslari oldiga yangi vazifalarni qo'yamoqda. Turkman tili ko'p asrlar davomida takomillashib, boy va murakkab tuzilishga ega bo'lgan juda ko'p sonli so'zlarni o'z ichiga oladi. Bu asrlar davomida bir-biri bilan aloqada bo'lgan xalqlar o'rtasidagi til munosabatlarining huquqiy holatidir. Bir xalq boshqa xalqdan zaruriyat, jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, xalq hayotida bo'lmagan narsalarga, fan-texnika kashfiyoti yutuqlariga, tabiiy boyliklarga oid yangi mazmunli so'zlarni qabul qiladi. O'zlashma so'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tish yo'llari, tarixiy sabablarini turkman tili leksikasi misolida o'rganish turkman tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Turkman tilshunosligida boshqa tillardan, xususan Yevropa tillaridan so'zlarning o'zlashishi va ularning xususiyatlariga, o'ziga xoslik va tahliliga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

Hozirgi turkman tili tizimi so'z yasaliş, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish, oldindan mavjud bo'lgan so'zlar ma'nosining o'zgarishi va yangi ma'nolarning hosil bo'lishi turkman tilining leksikasining boyib kelishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Чет тилларни ўрганиш тизimini янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори. -Т.: "Маърифат" 2012. 12декабрь. № 99. 1-2-б.
2. Махмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик. // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент: 2010. № 6. 4-б.
3. Atanyūzow S. Türkmen diliniñ sözköki (etimologik) sözlügi. -A.: Türkmenistanyñ milli medeniýet «Miras» merkezi, 2004. – S. 43.
4. Yusup Azmun. Söz kökümüz – öz kökümüz: Ylmy edebiyat. – Stokgolm: "Gün" neşirýaty, 2016. – S. 100.
5. Этимологический словарь русского языка. -СПб.: ООО "Полиграфуслуги", 2005. - С. 423.
6. Täçmyradow T. Türkmen edebi diliniñ sowet döwründe ösüş i we normalaşsy. -Aşgabat: 1984, - S. 14-70.
7. Çöñhäyew Y. Leksika. -Aşgabat: 1972. -S. 61.
8. Баш Л. М. Дифференциация термина "заимствование": хронологический и этимологический аспекты. // Вестник Моск. ун-та. Сер. 9. Филология. 1989. – С. 22–34.
9. Берков В.П. Двухязычная лексикография. Изд.2-е, перераб. и доп. – М.: "Астрель". АСТ. Транзиткнига, 2004. –С. 236.
10. Маковский М.М. К проблеме так называемой "интернациональной" лексики. // Вопросы языкознания. 1960. № 1.
11. Давлятова Э. М. Мустакиллик даври ўзбек тилидаги Ғарбий Европа ўзлашмаларнинг маданиятлараро тадқиқи. Автореф. Дисс. – Термиз: 2021.
12. Герд А.С. Значение термина и научное знание. //Научно-техническая информация. Серия 2. -М.: 1991. № 10.- С. 1-4.
13. Хожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
14. Абдуллаев Ф.А. Тил кандай ривожланади. –Тошкент: "Фан". 1972. –С. 54.
15. Alıvev A., Sodıqov O. O'zbek adabiy tili tarixidan. -Toshkent: "O'zbekiston", 1994. 120-b.
16. Большая российская энциклопедия. Том 3. -М.: 2005. -С. 85.

РЕЗЮМЕ. Maqolada turkman tiliga yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar va o'sha so'zlarning qaysi sohalarida faol qo'llanilishi haqida bir nechta misollar orqali ma'lumot berib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье на нескольких примерах представлена информация о словах, заимствованных из европейских языков в туркменский язык, и сферах, в которых эти слова активно используются.

SUMMARY. The article provides the analysis of words borrowed to the Turkmen language from European languages, and several examples in which areas these words are actively used.

INGLIS HÁM QARAQALPAQ TILLERINDE ELIKLEWISHLERDİŇ SALÍSTİRMALÍ ÜYRENİLİWİ

M.B.Bayimbetova – assistent oqıtıwshı

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: taqlid so'zlar, onomatopoeia, chog'ishtirma, tilshunoslik, shaxslararo munosabat, til birligi.

Ключевые слова: звукоподражательные слова, ониматопея, сравнение, лингвистика, межличностные отношения, языковое единство.

Key words: imitative words, onomatopoeia, comparison, linguistics, interpersonal relationships, linguistic unity.

Eliklewish sózler mánisi hám formalıq ózgesheligine qaray sózlerdiñ ayırıqsha toparın quraydı. Olar mánili sóz shaqaplarında anıq leksikalıq-semantikalıq hám grammatikalıq mánilerge iye emes. Olardıñ mánisi dógerek átiraptaǵı janlı hám jansız zatlardıñ, tábiyat qubılıslarınıñ háreketlerinen kelip shıǵatúǵın ses shıǵarıw qubılısların yamasa kórinislerge eliklewden payda boladı hám sol

eliklew mánisinde qollanıladı. Átirapımızdaǵı janlı, jansız zatlardıñ seslerine, tábiyat qubılıslarınıñ háreketlerinen payda bolǵan seslerge, hár qıylı kórinislerge eliklew arqalı jasalǵan sózlerdiñ toparına *eliklewish sózler* dep ataladı [1:246].

Inglis tilinde eliklewish, onomatopoeia dep te atalıp, etimologiyalıq kózqarastan, bul sóz grekshe *onomatopoiia*